


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona viloyatida 2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 542,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,2 % ni tashkil etdi.

Farg'ona viloyatida aprel holatiga ko'rsatilgan xizmatlarining hajmi va o'sish sur'atlari.




2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 247,8 mlrd. so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	3 542,3	95,2
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	230,2	114,3
moliyaviy xizmatlar	693,2	135,1
transport xizmatlari	652,3	84,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	615,4	87,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	95,5	102,2
savdo xizmatlari	1 138	93,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	88,5	75,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	134,6	81,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	61,4	88,5
ijara xizmatlari	81,2	78,8
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	92,6	79,7
shaxsiy xizmatlar	157,1	76,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	33,8	79,2
boshqa xizmatlar	84	80,1


Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (135,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,3 %) yashash va ovqatlanish xizmatlar (102,2 %), hamda savdo xizmatlari (93,6 %), xizmatlari kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm.




Joriy yilning yanvar-aprel oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 1 138,0 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlarda 693,2 mlrd. transport xizmatlarida 652,3 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 230,2 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, 2020 yil yanvar-aprel (%)




2020-yil yanvar-apel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 95,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 7,8 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 87,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2020-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar tarkibi
(%)da




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (32,1 %), moliyaviy xizmatlar (19,6 %), transport xizmatlari (18,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,5 %), shaxsiy xizmatlar (4,4 %) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,8 %) tashkil etadi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %



2020-yil yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 652,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 615,4 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 94,3 % ni tashkil etadi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (135,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (114,3%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (88,5 %) hamda me'morchilik sohasidagi xizmatlar (79,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	3 542,3	95,2
Farg'ona sh.	1 698,0	99,4
Qo'qon sh.	440,5	91,6
Quvasoy sh.	55,6	92,8
Marg'ilon sh.	350,0	93,9
Oltiariq t.	88,0	89,5
Qo'shtepa t.	51,7	91,8
Bag'dod t.	68,8	90,5
Buvayda t.	70,0	89,1
Beshariq t.	74,4	91,6
Quva t.	78,3	91,1
Uchko'prik t.	92,9	87,6
Rishton t.	67,9	99,0
So'x t.	30,8	95,2
Toshloq t.	69,7	93,4
O'zbekiston t.	77,0	89,5
Farg'ona t.	84,2	85,1
Dang'ara t.	64,0	87,5
Furqat t.	35,5	96,4
Yozyovon t.	45,1	96,3
2020-yil yanvar-aprel	Xizmatlar sohasininng rivojlanishi	8

2020-yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (99,4 %), shahrida va Rishton (99,0 %) va Furqat (96,4 %) va Yozyovon (96,3 %) tumanlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi (jami hajmga nisbatan %)



2020-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (47,9 %), Qo'qon (12,4 %) va Marg'ilon (9,9 %) shaharlarida hamda Uchko'prik (2,6 %), Farg'ona (2,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlari sohasi statistikasi bo'limi

71-230-87-28